International

scientific and practical conference

DECEMBER 6
2024

2024



STDF

Science technology& Digital finance

Google Scholar

The main directions of socio-economic development of New Uzbekistan: problems and solutions

MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

JIZZAKH BRANCH OF THE NATIONAL UNIVERSITY OF UZBEKISTAN NAMED AFTER MIRZO ULUGBEK

Scientific journal of Science technology & Digital finance

The main directions of socio-economic development of New Uzbekistan: problems and solutions collection of materials of the international scientific and practical conference on the topic

(December 6, 2024)

(Part 1)

Jizzakh-2024

Department of Economics and tourism of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
6.12.2024

The main directions of socio-economic development of New Uzbekistan: problems and solutions collection of materials of the international scientific and practical conference on the topic – Jizzahk: Department of economics and tourism of Jizzakh branch of the national university of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, December 6, 2024, 450 pp.

Editors in charge: DSc.prof. Turakulov O.X., PhD. O'ralov A.I.

In the collection of materials of the conference, the role and role of Science, Education and production in the era of globalization, the pressing problems of the issues of interaction of these processes, feedback on their solutions were presented by mature specialists of the field.

In addition, research on the scientific and practical topic, carried out in the economics, Exact Sciences, Natural Sciences and socio-humanities during the globalization period, information is presented in the scientific and practical fields, which includes the latest innovative technologies in the fields of production.

It can be argued that this collection is one of the specific intersections of current thoughts and innovative ideas of the world of science. This scientific and practical conference was actively attended by professors and scientific researchers engaged in scientific research in Uzbekistan and foreign countries. In increasing the position of the scientific and practical conference, the professors and teachers of domestic and foreign higher educational institutions made a significant contribution.

Professors and teachers of foreign higher educational institutions who actively participated in the work of the conference made a worthy contribution to the high level of interaction with scientists of our country. The processes of international cooperation with foreign countries and exchange with them in the field of Science in the era of globalization have a positive effect on the development of Higher Education, the fields of Science and production. The materials of this conference are special in that they include a wide range of research, from theoretical developments to practical solutions, demonstrating the diversity of approaches and directions in this area.

In conclusion, it should be noted that this scientific and practical conference will be a very useful collection for everyone who is interested in modern research in the fields of further development of Higher Education, Science, Education and production in the era of globalization. The authors are responsible for the content and quality of the articles and abstracts included in the collection.

IQTISODIY O‘SISH VA AHOLI TURMUSH SIFATINI OSHIRISHGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR



Turdimuratov Maqsud

Jizzax politexnika instituti dotsenti

Aholining turmush sifatini oshirish uchun barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda turmush sifatini yaxshilashga ta’sir qiluvchi omillarni ta’minlash lozim. Barqaror iqtisodiy o‘sish sur’atlarini oshirish uchun esa, iqtisodiy o‘sishning asosiy omillarini aniqlash va aynan o‘sha omillarga ko‘proq ahamiyat berish ehtiyoji yuzaga keladi.

Aholini turmush sifatini oshirish darajasi avvalo har bir mamlakatni yakuniy maqsadi sifatida e’tirof etish mumkin. Mazkur tushunchani amaliyotga kiritilishida BMT tomonidan ilgari surilgan “Global turmush darajasini aniqlash tamoyillari” bo‘yicha tavsiflangan.

Ijtimoiy tarmoqlardagi manbalarga ko‘ra, iqtisodiy rivojlanish–kengaytirilgan takror ishlab chiqarish va iqtisodiyot ishlab chiqarish kuchlari, ta’lim, fan, madaniyat, aholining turmush darajasi va sifati, inson kapitalidagi bosqichma-bosqich sifatli va tarkibiy ijobiy o‘zgarishlardir. Iqtisodiy rivojlanish ijtimoiy-iqtisodiy munosabatni rivojlanishi qamrab olingan, shuning uchun u iqtisodiyotning texnologik tuzilmalari va moddiy boyliklar taqsimotining o‘ziga xos tarixiy sharoitida turlicha davom etadi. Iqtisodiy rivojlanish inson hayotining sifatini oshiradi va hayot darajasini, shuningdek, o‘z-o‘zini qadrlash va erkinligini oshirish imkoniyatlarini yaxshilashni ham o‘z ichiga qamrab oladi.

Ayrim davlatlarda “iqtisodiy o‘sish yuqori, boshqalarda esa past darajada ifodalanadi. Mamlakatlar rivojlanishida ushbu ko‘rsatkich vaqt bilan bog‘liq turli holatlarda namoyon bo‘ladi. Shuningdek, qisqa va uzoq muddatli iqtisodiy o‘sish uning omillari hajmi va darajasi o‘zgarishi bilan ham o‘rganiladi. Qisqa muddatli iqtisodiy o‘sishda mehnat va kapital omillaridan foydalanish davri o‘zgarishi nazarda tutilsa, uzoq muddatli davri – ishlab chiqarishdagi omillar hajmi va texnologiyalarning o‘zgarishi nazarda tutiladi. Qisqa muddatli davrda 1-3 yil inobatga olinadi va tashqi iqtisodiy konyunktura hamda makroiqtisodiy siyosat bilan bog‘lanadi. Uzoq muddatli o‘sish 5-10 yillik davrni o‘z ichiga oladi va unda tarkibiy islohotlar natijalari o‘zgarishi mumkin”[1].

1.1-jadval

Global turmush darajasini aniqlash tamoyillari [2]

Turmush darajasi	Turmush darajasini o‘lchash tamoyillari
Turmush darajasini aniqlash va o‘lchash tamoyillari	1. Tug‘ilish; 2. O‘lim; 3. Umr ko‘rish davomiyligi; 4.Sanitar-gigiyenik sharoitlarning mavjudligi; 5.Oziq-ovqat mahsulotlarining iste’mol darajasi;

	6.Uy-joy, ta’lim olish va madaniy imkoniyatlar; 7.Ish sharoitlari va bandlik darajasi, daromadlar va xarajatlar muvozanati; 8. Iste’mol narxlari; 9.Transport vositalari bilan ta’minlanganligi; 10.Dam olish va xordiq chiqarish; 11.Ijtimoiy ta’minot; 12.Inson huquq va erkinliklari kafolatlangan

Turmush darajasi:tor ma’noda aholining iste’mol ehtiyojlari qondirilganligi, iste’molning daromad va xarajatlar bilan ta’minlanishini; keng ma’noda insonni rivojlanishi darajasini (sog‘lik, ehtiyojlarni qondirish imkoniyatlari) va uning yashash shart-sharoitlarini (atrof-muhit, xavfsizlik masalalari) anglatadi.

Odatda aholi turmush darajasi quyidagicha tasniflanadi: to‘kin-sochinlik (inson barkamol rivojlanishini ta’minlovchi ne’matlardan to‘liq foydalanish imkoniyati); me’yorli daraja (inson jismoniy va intellektual qobiliyatlarini takror hosil qilishini ta’minlovchi ilmiy asoslangan oqilona iste’mol darajasi); kambag‘allik (ish kuchini takror hosil qilishda moddiy ne’matlardan ularning quyi chegarasi doirasida foydalanish imkoniyati); qashshoqlik (moddiy ne’matlardan biologik mezonlar asosida minimal darajada foydalanish).

O‘zbekistonlik yetakchi olim T.Sh.Shodiyevning e’tirof etishicha [3] “...iqtisodiy rivojlanish” kategoriyasi “iqtisodiy o‘sish” tushunchasiga nisbatan keng ma’noli hisoblanadi. Ba’zan iqtisodiy o‘sish yaqqol ta’minlangan holda “iqtisodiy rivojlanish” yuz bermasligi mumkin. Demak, “iqtisodiy rivojlanish” inson manfaatlarini ta’minlash, hayotiy ehtiyojlarini qondirish, yashash sharoitini, meditsina xizmatini, ta’lim olish, barkamol avlodni taraqqiy etish imkoniyatlarini o‘zida qamrab oladi. Tahlillarga ko‘ra, iqtisodiy rivojlanish sifati iqtisodiyotni intellektuallashtirish va globallashtirish uning ichki omillariga aylanishi bilan belgilangan iqtisodiy rivojlanish sifat va miqdoriy xususiyatlari dinamik nisbati bilan belgilanadi.

Iqtisodiy o‘sish jihatlari va aholi turmush sifatini yaxshilashga ta’sir qiluvchi omillarni tahlil qilishda iqtisodiy rivojlanish tobora yuksalib borgan sari insonning turmush tarzi ham murakkablashib borishi tabiiy. Zero, mazkur rivojlanish ko‘p qirrali aloqalarni taqozo etib, ehtiyojlar doirasining kengayib, xilma-xil bo‘lib borishiga sabab bo‘ladi. Iqtisodiy rivojlanish iqtisodiyotdagi shunday sifatiy ijobiy o‘zgarishlarni nazarda tutadiki, ular iqtisodiy o‘sish sur’atlarini tezlashtirishga yordam beradi.

Iqtisodiyotda “Iqtisodiy o‘sish” tushunchasi odatda aholining turmush darajasi yuqori bo‘lgan mamlakatlarda ishlatiladi. Aholi jon boshiga YaIM ancha past bo‘lgan boshqa mamlakatlarda esa vaziyatni hisobga olish uchun “iqtisodiy rivojlanish” atamasi qo‘llaniladi. Iqtisodiy adabiyotlarda iqtisodiy o‘sishning ekstensiv va intensiv yo‘llari borligi keng tushuntiriladi. Ekstensiv o‘sishda ishlab chiqarishga qo‘shimcha resurslar jalb etilsa, intensiv o‘sishda ishlab chiqarish resurslaridan samaraliroq foydalanish maqsad qilib olinadi.

Department of Economics and tourism of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
6.12.2024

Bizni fikrimizcha iqtisodiy o‘sishni amal qilishi nuqtayinazaridan ikkita o‘ziga xos tomonlari orqali ifodalaymiz (1.1-rasm).

Turmush darajasi–bu aholi farovonligining, ne’matlar va xizmatlarni iste’mol qilishning darajasi, inson asosiy hayotiy ehtiyojlarining qondirilishi miqdoridir.

Iqtisodiy o‘sishning ijobiy tomonlari	**Iqtisodiy o‘sishning salbiy tomonlari**
Makroiqtisodiy barqarorlikning ta’minlanishi	Resurslarning yemirilib borishi
Ishlab chiqarishning rivojlanishi	Ekologik muammolarning yuzaga kelishi
Jahon bozoriga chiqish va xalqaro hamkorlikning kengayishi	Kadrlarni qayta tayyorlash muammolarining ko‘payib borishi
Aholining turmush sifatini yaxshilanishi	Urbanizatsiya, aholining asosiy qismi yirik shaharlarga joylashishi
Kambag‘allik darajasining kamayishi	Demografiya sohasidagi muammolar
Mehnat munosabatlari va sharoitlarining yaxshilanishi	Daromadlar tengsizligi

1.1-rasm. **Iqtisodiy o‘sishning ta’minlanishida yuzaga keladigan ijobiy va salbiy jihatlar [2]**

Turmush darajasining asosiy ko‘rsatkichlari (indikatorlari) aholi daromadlaridir. Ular quyidagilardan iboratdir:

aholi jon boshiga o‘rtacha nominal va real daromadlar, daromadlar tabaqalanishining ko‘rsatkichlari;

nominal va real o‘rtacha ish haqi;

o‘rtacha va real pensiya miqdori;

turmush kechirishning eng kam miqdori hamda turmush kechirish uchun eng kam miqdordan past daromadga ega aholi salmog‘i;

ish haqi, pensiya, nafaqalarning eng kam miqdori.

Turmush sifati umumlashtiruvchi ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. U faqat turmush darajasi ko‘rsatkichlarinigina emas, balki ma’naviy ehtiyojlar qondirilishi, atrof-muhit sharoiti, jamoadagi muhit va hokazolarni ham qamrab oladi. Biroq ushbu mezonlarning hammasini ham o‘lchab bo‘lmaydi. Bu esa turmush sifatini baholashni murakkablashtiradi.[4]

Turmush darajasi va turmush sifatining miqdor ko‘rsatkichlari eng aniq-ravshanlaridir. Ular, eng avvalo, aholi jon boshiga yalpi milliy mahsulot yoki milliy daromad, daromadlar darajasi va daromadlarning jamiyatda taqsimlanishi, moddiy ne’matlar va xizmatlarni iste’mol qilish darajasi va hokazolardir.Turmush darajasi va turmush sifatining sifat ko‘rsatkichlari mehnat sharoitlari, insonning turmush kechirish va dam olish sharoitlari ko‘rsatkichlarini qamrab oladi.

Hozirgi davr amaliyotida turmush darajasi va turmush sifatini baholashga ikki xil yondashuv qabul qilingan:

1. Baholash ko‘rsatkichlari tizimi– bu ijtimoiy indikatorlar yordamida amalga oshiriladi. Baholash ko‘rsatkichlarining milliy tizimlari o‘z xususiyatlariga egadir, lekin ular BMTning metodologik tavsiyalariga asoslanadi.

2. Turmush darajasi va turmush sifatining jamlanma indeksi alohida ko‘rsatkichlar asosida hisoblab chiqiladi. Bunday yondashuv BMT va boshqa


Department of Economics and tourism of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
6.12.2024

xalqaro tashkilotlar tomonidan turli mamlakatlardagi aholi turmush darajasi va turmush sifatini taqqoslash uchun keng qo‘llaniladi.

Iqtisodiy o‘sish va aholi turmush sifatini oshirishga ta’sir etuvchi omillar quyidagicha guruhlandi (1.2-rasm).

Aholi turmush farovonligi indikatorlarini hisoblashda quyidagi komponentlar hisobga olinadi: mavjud daromad, amaldagi iste’mol, aholi pul daromadlari va boshqalar. Aholi turmush darajasini tahlil qilish va baholashda yalpi ichki mahsulotni hajmi, yalpi milliy daromadning miqdori va aholi jon boshiga ishlab chiqarilish hajmi, uy-joy bilan ta’minlanish, jon boshiga to‘g‘ri keladigan tovar ayriboshlov va xizmatlarning miqdori ham hisobga olinadi. Shuningdek, aholining tug‘ilishi va o‘limi, o‘rtacha yashash yoshi va boshqalar aholi turmush darajasini ifodalovchi bilvosita ko‘rsatkichlar hisoblanadi.


Shu sababli ish haqi miqdori, turmush darajasini ham ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalari samaradorligining ko‘lami, ilmiy-texnik taraqqiyot darajasi, aholining madaniy-ma’rifiy saviyasi va tarkibi, milliy xususiyatlar, siyosiy hokimiyatga bog‘liq. Turmush farovonligi inson (aholi) hayot faoliyatini ma’lum bir qirrasi to‘g‘risida tasavvur beradigan ko‘rsatkichlar tizimi bilan belgilanadi.



Department of Economics and tourism of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
6.12.2024

1.2-rasm. **Iqtisodiy o‘sish va aholi turmush sifatini oshirishga ta’sir etuvchi omillar [2]**

Turmush farovonligi to‘g‘risida batafsil ma’lumot olish uchun aholi daromadlari va ehtiyojlari, iste’mol darajasi va tarkibi, uy-joy, mol-mulk, madaniy-maishiy buyumlar va boshqalar bilan ta’minlanganlik darajasini chuqur o‘rganish lozim bo‘ladi. Shu sababli ishda aholi ehtiyojlari va turmush farovonligiga ta’sir etuvchi omillarni quyida keltirilgan 1.3-rasm orqali ifodalaymiz.



1.3-rasm. **Aholi ehtiyojlari va turmush farovonligiga ta’sir etuvchi omillar [5]**

Aholini turmush sifati va uning turmush farovonligini ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya sifatida quyidagi elementlarga bo‘lib o‘rganiladi: aholi daromadlari; aholi turmush sifati; aholini ijtimoiy-demografik tarkibi; aholini uy-joy sharoiti, aholini qulay uy-joy bilan ta’minlanganlik darajasi; mahsulot va xizmatlarni iste’mol qilish; mehnatga haq; qariyalarni ta’minlash; sug‘urtalash va boshqalar.

Aholi turmush sifati va turmush farovonlik darajasini ifodalovchi ko‘rsatkichlar bir nechta bo‘lib, turmush darajasi konsepsiyasiga bog‘liqdir (1.2-jadval).

1.2-jadvaldagi ko‘rsatkichlarni alohida belgilarga bo‘lingan holda quyidagicha turkumlash mumkin: umumiy va xususiy; iqtisodiy va ijtimoiy-demografik; obyektiv va subyektiv; qiymat va natura; miqdor va sifat; iste’mol proporsiyasi va tarkibi ko‘rsatkichlari; statistik ko‘rsatkichlar va boshqalar.

Aholi turmush sifati va turmush farovonligi ko‘rsatkichi umumiy va xususiy turlarga ajratiladi. Umumiy turiga: milliy daromad; iste’mol fondi; milliy boyliklar iste’mol fondi kabi ko‘rsatkichlarni aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan ulushi

Department of Economics and tourism of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
6.12.2024

kiritilgan. Bu ko‘rsatkichlar jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining umumiy darajasini ifodalaydi.

1.2-jadval

Aholi turmush sifati va turmush farovonligining asosiy ko‘rsatkichlari

Absolyut ko‘rsatkichlar	Nisbiy ko‘rsatkichlar
Milliy daromad hajmi	Iste’mol fondining milliy daromaddagi ulushi
Aholining nominal daromadlari	Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan real daromad
Ish haqi fondi	O‘rtacha va mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori
Tadbirkorlikdan olinadigan daromadlar	Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan tadbirkorlikdan olinadigan o‘rtacha daromad
Pensiya fondlari hajmi	Pensiyaning o‘rtacha va eng kam miqdori
Tovar aylanmasi hajmi	Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan tovar aylanishi
Bajarilgan xizmatlar hajmi	Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan xizmatlar salmog‘i
Uy joy fondining hajmi	Bir kishiga to‘g‘ri keladigan uy-joy hajmi (kv.m., xona)
Iqtisodiyot tarmoqlarida ish bilan band aholining soni	Iqtisodiy faol aholi tarkibida bandlar va ishsizlar salmog‘i
Aholining jamg‘armalari	Jamg‘armaning o‘rtacha miqdori
Aholini tarkibiy ko‘payishi	Yashash davri

Aholi turmush sifati – kishilarning ehtiyojlar va qiziqishlarini kompleks rivojlantirish hamda to‘liqroq qondirish darajasidan iborat.

Aholini maksimal yuqori turmush sifatiga erishish ijtimoiy bozor iqtisodiyotini ustuvor maqsadlaridir.

Aholi turmush sifati turmush darajasiga qaraganda keng mazmun va mohiyatga ega bo‘lgan kategoriyadir.

Shu sababli aholi turmush sifatiga ta’sir etuvchi omillar quyidagilardan iborat:

• mehnat sharoitlari va xarakteri, keskinligi hamda mehnat unumdorligi darajasi;

• aholini ijtimoiy himoya qilish darajasi;

• madaniy, milliy va diniy munosabatlar;

• jinoyatchilik darajasi, ekologik holat va boshqalar.

Aholi turmush sifati tarkibini belgilovchi elementlar quyidagilardan iborat:

1. Takror ishlab chiqarish sohasidagi shart-sharoitlar: uy-joy sifati, sog‘liqni saqlash (o‘rtacha yashash yoshi, demografik ko‘rsatkichlar, sog‘liqni saqlash xizmatini sotib olish xizmati), iste’mol sifati, ta’limning darajasi va ta’minlanishi, malakani oshirish.

2. Moddiy ishlab chiqarish sohasidagi shart-sharoitlar: bandlik, ishga joylashish, mehnatga haq to‘lash darajasi; aholining iste’mol talabi darajasi (kiyim, poyafzal, kundalik va uzoq muddatlik tovarlar); kambag‘allik indeksi.

3. Davlat va jamiyatda boshqarish sohasidagi shart-sharoitlar (o‘z-o‘zini boshqarish): Yuridik va huquqiy himoya; faoliyat sohalarini davlat tomonidan

Department of Economics and tourism of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
6.12.2024

tartibga solishdan qoniqish; infrastruktura darajasi (transport, aloqa, kommunikatsiya); jismoniy xavfsizlik.

4. Ijtimoiy sohadagi shart-sharoitlar: axborot resurs markazlari, muzeylar, teatr, sport inshootlari xizmatidan foydalanish imkoniyati va sifati, aholining turli tabaqalariga ijtimoiy xizmatni ko‘rsatayotgandagi madaniyat darajasi; sevimli ish, qiziqish, xobbi bilan shug‘ullanish imkoniyati va boshqalar.

Aholi turmush sifatini ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya sifatida quyidagi xususiyatlarga bo‘lib o‘rganilgan:


1. Aholi turmush sifati juda keng, ko‘p qirrali murakkab tushuncha bo‘lib turmush darajasiga qaraganda keng mazmunni ifodalaydi.

2. Aholi turmush sifatini ikki tomonga: ya’ni obyektiv (aholini ilmiy asoslangan ehtiyoj va qiziqishini qondirish darajasi) va subyektiv (aholi o‘zlarini hayoti sifatidan qoniqish darajasi).

3. Aholi turmush sifatini boshqa ijtimoiy-iqtisodiy kategoriyalar bilan chambarchas bog‘liqligidir.

Aholi turmush sifatini aniqlovchi integral indikatorlarga quyidagilar: inson salohiyatining taraqqiyoti indeksi (ISTI); jamiyat intellektual salohiyati indeksi; jon boshiga to‘g‘ri keluvchi inson kapitali; aholining yashovchanlik indeksi va boshqalar kiradi.

Aholi turmush farovonligini obyektiv ko‘rsatkichlariga aholi daromadi darajasi, oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlarini iste’mol darajasi, aholini uy-joy bilan ta’minlash, ijtimoiy infrastruktura bilan ta’minlash darajasi va sifati, ta’lim darajasi va sifati bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘rsatkichlardan hamda aholi turmush sifatini subyektiv jihatlarini aks ettiruvchi aholi madaniyatining darajasi, aholining mamlakat miqyosida yashash sharoitlaridan qoniqish darajasi, aholini kelajak hayotga bo‘lgan ishonch darajasi kabi ko‘rsatkichlardan tashkil topgan (1.3-rasm).



1.3-rasm. **Aholini turmush sifati toifasi bo‘yicha tarkibi**

Department of Economics and tourism of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
6.12.2024

Aholini turmush sifatini aniqlashda qo‘llaniladigan indikatorlar soni ko‘p bo‘lib, ularning ichidan aholini obodonlashtirish, uy-joy va maishiy xizmat, bilim darajasi hamda ta’lim olishni davomiyligi ko‘rsatkichlarini roli ortmoqda.

Demak, iqtisodiy o‘sish va aholi turmush sifatini oshirishga ta’sir etuvchi omillar borasida olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosa va takliflarni ilgari surish mumkin:

- hududlarda iqtisodiy o‘sish darajasini oshirish, ishlab chiqarish va moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash, zarur infratuzilmani shakllantirishga asoslangan iqtisodiy rivojlanishning konseptual yo‘nalish va vazifalarini ishlab chiqish, ularni amalga oshirilishini ta’minlash;

- iqtisodiy o‘sishni inklyuzivligini ta’minlash, davlat boshqaruvi organlari, nodavlat-notijorat tashkilotlari, jamoat tashkilotlari hamda xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari bilan hamkorlikda kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha strategiya va dasturlarni ishlab chiqish, amalga oshirish va muvofiqlashtirish;

-kambag‘allikni qisqartirishning aniq dastak va mexanizmlarini ishlab chiqish, xorijiy tajribani inobatga olgan holda kambag‘allik darajasini aniqlash mezonlari va baholash uslubiyatini, ijtimoiy ta’minotning minimal standartlari va me’yoriy asoslarini ishlab chiqish va joriy etish;

- aholi daromadlari tabaqalashuvini o‘rganish bo‘yicha tizimli ishlarni olib borish hamda ularning davlat maqsadli dasturlari bilan o‘zaro muvofiqligini ta’minlash.

Xulosa

Iqtisodiy o‘sish jihatlari va aholi turmush sifatini yaxshilashga ta’sir qiluvchi omillarni tahlil qilishda iqtisodiy rivojlanish tobora yuksalib borgan sari insonning turmush tarzi ham murakkablashib borishi tabiiy. Zero, mazkur rivojlanish ko‘p qirrali aloqalarni taqozo etib, ehtiyojlar doirasining kengayib, xilma-xil bo‘lib borishiga sabab bo‘ladi. Iqtisodiy rivojlanish iqtisodiyotdagi shunday sifatiy ijobiy o‘zgarishlarni nazarda tutadiki, ular iqtisodiy o‘sish sur’atlarini tezlashtirishga yordam beruvchi omillar ta’siri asosida innovatsion shakllarini rivojlantirish taklifi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘sish jihatlari va aholi turmush sifatini yaxshilash hududlarda iqtisodiy o‘sish darajasini oshirish, ishlab chiqarish va moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash, zarur infratuzilmani shakllantirishga asoslangan iqtisodiy rivojlanishning konseptual yo‘nalish va vazifalarini ishlab chiqish va ularning amalga oshirilishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Идрисов Г., Синельников-Мурылов С. Бюджетная политика и экономический рост. – М.: 8/2013. -С. 35- 59.
2. Ma’lumotlar asosida muallif ishlanmasi
3. Шодиев Т.Ш. Ишлаб чиқаришни модернизациялаш, интеллектуаллаштириш ва диверсификациялаш асосида иқтисодий ўсиш

Department of Economics and tourism of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
6.12.2024

сифатини ошириш“Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали.Т.: 2011 йил № 1, сентябрь.-3 б.
4. Инсон тараққиёти. Дарслик. и.ф.д., проф. Қ.Х. Абдураҳмонов таҳрири остида . – Т.: Иқтисодиёт, 2013, 243-245 б.
5. Abdurahmonov X.X. Aholi daromadlari va turmush sifati. - T.: Ilm Ziyo, 2014, 55 b.

Department of Economics and tourism of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
6.12.2024